

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro‘yxatga olindi:

№ _____

2017-y. «__» _____

«TASDIQLAYMAN»

O‘quv ishlari prorektori

prof. A.S.Soleev

«__» _____ 2017-yil

«HARBIY SAN‘AT TARIXI»

FANINING

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:

100000 – Gumanitar soha

Ta‘lim sohasi:

120000 – Gumanitar fanlar

Ta‘lim yo‘nalishi:

**5120300-Tarix (mamlakatlar
va mintaqalar bo‘yicha)**

5120400-Arxeologiya

Samarqand 2017

Fanning o‘quv dasturi namunaviy-o‘quv, ishchi o‘quv rejaga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Rayimov F.U. – SamDU, «Jahon tarixi» kafedrasida o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Xandamova M.A. – SamDChTI, «Ijtimoiy fanlar» kafedrasida dotsenti, t.f.n

Raxmatullayev M.R. – SamDU, «Jahon tarixi» kafedrasida dotsenti, t.f.n.

Fanning o‘quv dasturi "Jahon tarixi" kafedrasining 2017-yil ____ avgustdagi № 1-son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Fanning o‘quv dasturi Tarix fakulteti ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2017-yil ____-avgustdagi № 1-son bayonnoma).

Kirish.

Insoniyat paydo bo'lishi bilan undagi yashashga intilish turli xavf-xatarlarga qarshi kurashishga majbur etdi. Ana shu majburiyat dastavval himoya funksiyasini bajaruvchi va kerak o'rinlarda ov qurollari vazifasini bajaruvchi qurollarning ixtiro qilinishiga olib keldi. Asta-sekinlik kishilik jamiyatining taraqqiyoti turli hududlarda yashaydigan insonlarning o'zaro uchrashuvlari sodir bo'la boshladi. Ba'zida bu uchrashuvlar yaqinlik rishtalari bilan tugagan bo'lsa, ba'zida bo'lsa o'zaro urushlarni keltirib chiqargan. O'z-o'zidan avval boshda insonning hayotini saqlab qolish va ozuqa uchun mo'ljallangan hayvonlarni ov qilish uchun qo'llanilgan ilk qurollar insonlarga qarshi ishlatila boshlandi. Ta'bir joiz bo'lsa ana shu paytdan e'tiboran bu qurollarni endi harbiy qurollar sifatida atash mumkin. Insonlar o'rtasidagi ma'lum bir maqsadlar yo'lidagi kurashlar va urushlar muntazam ravishda harbiy sohaning takomilashib borishiga olib keldi.

Davlatlarning paydo bo'lishi bilan harbiy soha eng asosiy masalag aylanib bordi. Davlatlarning qudrati va o'z-o'zini mudofaa qilish qobiliyati ko'p jihatdan harbiy soha bilan chamarchas bog'lanib ketdi. Bu esa borgan sari harbiy ishning takomillashib borishiga zamin bo'ldi. Harbiy ish bir qancha ko'rinishlarda taraqqiyo qilib bordi. Ya'ni qo'shin tarkibi kengayib bordi, qo'llaniladigan qurollar miqdori va turi o'sib bordi, asta-sekinlik bilan jang qilish taktikalari va strategiyalari mukammallashib bordi. Bularning barchasi harbiy san'atni tashkil etuvchi faktorlar bo'ldi. Dunyo davlatlari tarixining asosiy va muhitm qismini harbiy san'at tarixi tashkil qiladi. Harbiy san'at tarixi tarixni to'la va holis o'rganishga yordam beruvchi fanlardan biridir.

Kursning maqsadi

Qadimgi dunyo va o'rta asrlar davri Sharq va Yevropa ayrim davlatlari, Markaziy Osiyo va O'zbekiston tarixi kontekstida harbiy san'at tarixini o'rganishdir.

Kursning vazifalari:

- Qadimgi dunyo va o'rta asrlar davri Sharq va Yevropa davlatlarida, Markaziy Osiyo va O'zbekistonda harbiy ish va harbiy san'at rioji tarixini o'rganish;
- Turli tarixiy davrlarda Sharq va Yevropa davlatlarida, Markaziy Osiyo va O'zbekistonda harbiy san'at tariaqqiyotining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib berish;
- Harbiy san'at tarixini o'rganish jarayonida turli mamlakatlar va xalqlar qurolli kuchlari, taktikalari, strategiyasi va an'analarining o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi hamda ayro jihatlariga oid masalalarni o'rganish;
- Qadimgi dunyo va o'rta asrlar davrida Sharq va Yevropa mamlakatlari, Markaziy Osiyo va O'zbekiston qo'shinlarining strategiyasi va taktikasi asoslarini o'rganish;
- Qadimgi dunyo va o'rta asrlar davrida Sharq va Yevropa, Markaziy Osiyo va O'zbekistonning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va harbiy san'at taraqqiyoti o'rtasida mantiqiy aloqadorlikni ko'rsatib berish;
- Harbiy tarixda qurolli kuchlar va harbiy texnika rolini ko'rsatib o'tish;
- Yoshlarning vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga ko'maklashish.

Kurs bo'yicha talabanning tasavvur, bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Kurs yakunida talaba quyidagilarni bilishi lozim:

- Qadimgi va o'rta asrlar davrida Sharq va Yevropa davlatlari, Markaziy Osiyo va O'zbekiston harbiy san'atining asosiy faktlarini, asosiy janglarini va taniqli sarkardalarning faoliyatini tahlil qila olishi;
- O'rganilayotgan davrda Sharq va Yevropa davlatlari, Markaziy Osiyo va O'zbekistonning harbiy san'at, strategiyasi va taktikasining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib bera olishi;
- Qadimgi dunyo va o'rta asrlar davrida Sharq va Yevropa, Markaziy Osiyo va O'zbekistonning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va harbiy san'at taraqqiyoti o'rtasida mantiqiy aloqadorlikni asoslab bera olish;

Shuningdek, talaba fanni o'qish jarayonida

- ◆ Ilk harbiy san'at deb qaraluvchi jihatlarni
- ◆ Qadimgi va o'rta asrlar davri Sharq va Yevropa davlatlari, Markaziy Osiyo va O'zbekiston hududiy va xronologik ramkalarini;
- ◆ Tarixiy–geografik majmuani tashkil etuvchi asosiy davlatlarni;
- ◆ Qadimgi dunyo va o'rta asrlardagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatni;

- ◆ Harbiy san'at rivojida mamlakatlar taraqqiyot darajasining umumiy o'rni va rolini hamda uning asoslarini ilmiy izlanishlarni nazariy – metodologik jihatdan o'rganishi lozim;
Taklif qilingan o'quv rejasiga ko'ra «Harbiy san'at tarixi» fani 8 soat ma'ruza va 8 soat seminar mashg'ulotlaridan iborat.

Kursning o‘zlashtirilishiga qo‘yilgan talablar.

- Dars orqali talabalarda mavzu bo‘yicha umumiy tasavvur hosil qilinadi. Sodir bo‘lgan tarixiy voqeyelik to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladi
- Talaba o‘tilgan mavzu bo‘yicha umumiy nazariy bilim va ko‘nikmaga ega bo‘ladi. Talabaning tarixiy mushohadalash, tarixiy jarayonlarga o‘z mustaqil no‘qtai nazarini bildira olish, fikrini erkin bayon etish qobiliyatini shakllantiriladi hamda rivojlantiriladi.
- Dars orqali talaba mustaqil ilmiy izlanish faoliyatiga jalb etishga, fanga, tarixga bo‘lgan qiziqishini o‘stirishga harakat qilinadi.

O‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

Mazkur kurs o‘quv rejasidagi “Ibtidoiy jamiyat tarixi”, “Qadimgi dunyo tarixi”, "O‘rta asrlar diplomatiyasi va xalqaro munosabatlar tarixi", "O‘rta asrlar tarixi", “O‘zbekiston tarixi” "Jahon sivilizasiyalari tarixi" va "Fan tarixi" kabi fanlar bilan uzviy bog‘liqdir. Kursni o‘rganishda o‘rta maktab va o‘rta-maxsus ta‘lim bosqichida jahon tarixi kurslarida, shuningdek oldingi kurslarda olingan nazariy va amaliy bilimlar zarur bo‘lsa, o‘z navbatida bu fandan olingan bilimlar keyingi davr harbiy san‘at tarixini chuqur o‘zlashtirishda ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Kursning shlab chiqarishdagi o‘rni

Jahon xalqlarining tarixiy rivojlanishini bosqichma-bosqich tarixiylik, ilmiylik, xolisona yondoshuv negizida o‘rgabish.

Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha mavzular rejasi va adabiyotlar ro‘yxati talabalarga taqdim etiladi va talabalar mustaqil tayyorlanib kelib, munozara tarzida o‘zi egallagan bilimni namoyish etadi. Test usulida baholashda test topshiradilar.

Kursni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

O‘quv jarayoni bilan bog‘lik ta‘lim sifatini belgilovchi xolatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma‘ruzalar o‘qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va mul‘timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o‘ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo‘yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

Dasturda ko‘rsatilgan mavzular ma‘ruza, seminar shaklida olib boriladi, shuningdek, kursning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o‘zlashtirish uchun beriladi. Kurs zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Klaster”, “Bumerang”, “FSMU”, “Aqliy hujum” singari metodlar orqali hamda slaydlar, multimediya namoyishlari bilan o‘tkaziladi.

Dasturda mavzularning informasion asosini fanga tegishli adabiyotlar, davriy adabiyotlar, internet ma‘lumotlari tashkil qiladi.

"Harbiy san‘at tarixi" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan xolda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliqi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni xal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni takdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, pinbord, paradoks va loyixalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini taxlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi xarakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida xam butun kurs davomida xam o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. "Harbiy san'at tarixi" kursini o'qitish jarayonida kompyuter

texnologiyasidan foydalanish mumkin. Ayrim mavzular buyicha talabalar bilimni baxolash test asosida va kompyuter yordamida bajarish ham mumkin.. "Internet" tarmog'idagi mavzu bo'yicha e'lon qilingan axborotlardan foydalaniladi, tarkatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi xamda tayanch so'z va iboralar asosida yakuniy nazorat o'tkaziladi.

Asosiy qism

Kursning mazmuni.

Insoniyat taraqqiyoti urushlar bilan birga yonma-yon kechdi. Insoniyat tarixi yaratishlar, bunyodkorlik, ezgulik tarixi bo'lishi bilan birga, urushlar, yo'qotishlar davri hamdir. Yozma yodgorliklarning guvohlik berishicha, so'nggi 6 ming yil mobaynida Yer sharida 15 mingdan ziyod urush sodir bo'lgan. Shu davrning ichida atigi 300 yilgina urushsiz kechgan. Ma'lum ma'noda tarixda o'chmas iz qoldirgan davlatlarning shu qudratga erishuvining asosiy va bosh omillaridan biri uning muvaffaqiyatli olib borgan urushlari yoki o'z-o'zini mudofaa qilish imkoniyati bilan bog'liqdir. Bu ikki omil bo'lsa umumiy ravishda harbiy san'at tarixi bilan uzviy bog'lanadi. Hech shubha yo'qqi, davlatlarning uzoq muddat davomida o'z mustaqilligini saqlab qolganligi va dunyoga taniqli darajaga erishuvida harbiy sohadagi yutuqlarining o'rni kattadir.

Kishilik tarixining katta va jaralmas qismini tashkil etuvchi urushlar va harbiy san'at tarixisiz tarixni to'la ochib berish qiyindir. Tarix dunyoga harbiy mahoratni yuksak san'at darajasiga ko'targan Aleksandr Makedonskiy, Spitamen, To'maris, Yuliy Sezar, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Chingizxon, Amir Temur, Bobur singari shaxslarni yetkazib berdiki, ularning harbiy sohada amalga oshirgan ishlari ularning shaxsiyatini o'rganish bilan birga, ular yashagan davr tarixini va davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini batafsil o'rganishga imkon beradi. Shuning uchun ham aksariyat hollarda jahon mamlakatlarida "Harbiy san'at tarixi" fani maxsus shu soha mutaxassislari bilan birgalikda tarix sohasida ixtisoslashayotgan mutaxassislarga ham asosiy tarixga yordamchi fanlardan biri sifatida o'qitib kelinmoqda.

Mazkur kursda asosiy e'tibor dastlabki harbiy ish shakllanishidan to yangi zamon davrigacha bo'lgan davr oralig'idagi Sharq va G'arb (Yevropa) mamlakatlarida harbiy san'at taraqqiyotining umumiy jihatlarini o'rganishga qaratilgan.

Qadimgi dunyoda harbiy san'atning shakllanishi.

Ilk harbiy qurollarning paydo bo'lishi. Insoniyat tarixiy taraqqiyot jarayonini to'liq o'rganishda urushlar va harbiy san'atning o'rni. Qadimgi va o'rta asrlar Sharq va Yevropa harbiy san'at tarixi bo'yicha tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar. Ilk harbiy qurollarning paydo bo'lishi va unga bo'lgan zaruriyatlar. Paleolit. Tosh qurollar. Mezolit. Tosh qurollarning takomillashuvi. Neolit. Bronza. O'q-yoyning kashf qilinishining harbiy san'at taraqqiyotiga ta'siri. Ibtidoiy davrda harbiy mashg'ulotlar va jang olib borish masalasi. Qabilalar ichida

harbiylar qatlamining shakllanib chiqishi. Urushlarning yuzaga kelishining zaruriyatlari va sababiy omillari.

Qadimgi Sharqda harbiy san'at. Misrda harbiy ish. Qadimgi Misrda davlatchilik va harbiy ish taraqqiyoti. Qadimgi Misrda qo'shin va uning turlari. Qadimgi Misr qo'shini qurollanishi va harbiy tayyorgarligi. Urush olib borish usullari va jang taktikalari. Mudofaa inshootlari. Nomarxlar. O'rta podsholik davrida harbiy ish. Giksoslar bosqini. Jang aravalarining kirib kelishi. Yangi podsholik davrida harbiy ish. Tutmos va Ramsez II harbiy yurishlari.

Qadimgi Ossuriya harbiy san'ati. Urartu davlatida harbiy ish taraqqiyoti. Qadimgi Eronda harbiy ish. Markaziy Osiyo xalqlarida harbiy tayyorgarlik. Qadimgi Xitoy harbiy san'ati.

Antik davrda harbiy san'at taraqqiyoti.

Qadimgi Yunonistonda harbiy san'at. Sparta va Afinada harbiy tayyorgarlik. Afinada harbiy sohada o'tkazilgan islohotlar. Afinada qo'shin soni, qurollanish va harbiy tayyorgarlik. Urush va jang taktikalari. Yunon falangasi. Janglarda qo'llanilgan taktikalar. Afina harbiy qudartining oshishi. Peoponnes urushlari va uning harbiy san'at rivojidadagi o'rni. Yunonistonda harbiy nazariya taraqqiyoti. Aleksandr Makedonskiy va uning harbiy san'ati.

Qadimgi Rimda harbiy san'at. Rimda davlatchilik va ilk harbiy tayyorgarlik ahvoli. Serviy Tulliy islohoti. Harbiy ta'lim. Rim legionlari. Harbiy strategiya. Harbiy lagerlar. Harbiy dengiz flot va uning taktikasi. Puni urushlari va Gannibal harbiy mahorati. Rimda yollanma qo'shinning paydo bo'lishi. Mariya islohoti. Kagorta taktikasi. Sharqqa yurishlarda harbiy mahoratning oshishi. Yuliy Sezar va uning harbiy mahorati. Imperiya davrida Rimda harbiy tayyorgarlik ahvoli va o'zgarishlar.

O'rta asrlar davrida Sharq va Yevropa mamlakatlarida harbiy san'at taraqqiyoti.

Yevropa xalqlari va mamlakatlarida harbiy san'at. Qadimgi german va slavyan qabilalarida harbiy ish. Franklar davlatida harbiy tayyorgarlik va harbiy sohada qilingan islohotlar. Ritsarlar qatlamining paydo bo'lishi. Karl Buyukning harbiy yurishlari. Yevropa davlatlarida markazlashuv va uning harbiy hayotga ta'siri. Germaniyada harbiy ishidadagi o'zgarishlar. Fransiyada harbiy ish. Yevropa mamlakatlarida yollanma qo'shinning paydo bo'lishi.

Sharq mamlakatlarida harbiy san'at rivoji. Arab halifaligida harbiy san'at va uning taraqqiyoti. Vizantiyada harbiy san'at. O'rta asrlarda mo'g'ullarda harbiy tayyorgarlik. Mo'g'ullarda qo'shin tuzilishi. Mo'g'ullar strategiyasi. Amir Temur – mohir sarkarda sifatida. Amir Temur davrida harbiy ish rivoji. "Temur tuzuklari" – harbiy tarix bo'yicha manba sifatida.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar "Harbiy san'at tarixi" kursidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga seminar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim oladilar. Kursning o'quv soati hajmidan kelib chiqib seminar mashg'ulotlarida Markaziy Osiyo va hususan O'zbekistonning qadimgi davridan to xonliklar davrigacha bo'lgan harbiy san'at taraqqiyotini o'rganish tavsiya etiladi. Buning natijasida talabalar vatanimiz tarixida harbiy ishining rivoji, tarixda o'tgan buyuk sarkardalarimiz haqida bilim-ko'nikmalari kengayadi.

Seminar mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

- Qadimgi davrda O'zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlarida harbiy mahoratning shakllanishi va rivoji;
- Ilk o'rta asrlarda O'zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlarida harbiy mahoratning shakllanishi va rivoji;
- IX-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda harbiy san'at taraqqiyoti;
- Amir Temur va temuriylar davrida harbiy san'at taraqqiyoti;
- Xonliklar davrida harbiy ish va uning umumiy ahvoli

Izoh: Seminar mashg'ulotini tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan kurs yuzasidan o'quv yiliga mo'ljallab tuzilidagin ishchi-o'quv dasturida mavzular va ular bo'yicha rejalar, adabiyotlar ro'yxati beriladi. Shuningdek fan o'ituvchisi seminar mashg'ulotlari uchun ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqishi ham mumkin. Talabalar ishchi-o'quv dasturidagi seminar mashg'ulotlari bo'yicha mavzularga mustaqil tayyorgarlik ko'radilar va bilim-ko'nikmalarini boyitadilar. Seminar mashg'ulotlarida talabalar jamoa bo'lib va mustaqil ishlaydi.

Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni.

Mustaqil ta'lim davomida talabalar o'quv dastriga kirmagan mavzularni qo'shimcha adabiyotlar asosida mustaqil o'rganadilar. Mustaqil ta'lim ikki xil usulda bajarilishi tavsiya etiladi. Bular – referat va konspekt qilish.

Izoh: Mustaqil ta'limni referat shaklida bajaruvchi talabalar qo'shimcha adabiyotlardan o'zlariga berilgan mavzular bo'yicha referat tayyorlab kelishlari tavsiya qilinadi. Qolaversa talabalar ixtiyoriy ravishda horijiy tilli (rus va ingliz) adabiyotlardan mustaqil ishlarni ham bajarishlari mumkin. Shuningdek talabalar harbiy san'at tarixi bo'yicha ma'lumotlarni o'zida jamlagan vatanimiz tarixidan ma'lumot beruvchi tarixiy manbalarni o'zlashtirib, shu asosda konspektlarni amalga oshirishlari ham tavsiya qilinadi. Undan tashqari jahon tarixida ko'zga ko'ringan sarkardalarning faoliyati haqida ham konspektlashtirish orqali mustaqil ishni bajarishlari mumkin

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy darslik va qo'llanmalar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1999.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T. 2008.
3. Karimov I. A. Milliy armiyamiz - mustakilligimizning, tinch va osoyishta xayotimizning mustahkam kafolati. T. 2003.
4. Karimov I. A. Armiya-davlat tayanchi va tinchlik kafolati. T. 2005.
5. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda. T. 1999.
6. Дельбрюк Г. История военного искусства. в 4-х томах. Том 1 - Античный мир. Том 2 - Германцы. Том 3 - Средневековье. Том 4 - Новое время. Санкт-Петербург: "Наука", 2001.- 4349 с.
7. История военного искусства //Под ред. Строкова А.А. - М.: Воениздат, 1966. -
8. История войн и военного искусства Учебник. –М.: Воениздат, 1970.
9. История военного искусства. Под ред. П.А.Жилина. М., 1986.
- 10.Разин Е.А. История военного искусства. СПб., 1994.
- 11.Разин Е.А. История военного искусства. Том 1. СПб.: ООО «Издательство Полигон», 1999. — 562 с. — ISBN 5-89173-039-1 (XXXI в. до н. э. - VI в. н. э.) ISBN 5-89173-038-3
- 12.Разин Е.А. История военного искусства. Том 2. СПб.: ООО «Издательство Полигон», 1999. — 655 с. — ISBN 5-89173-040-5 (VI - XVI вв.), ISBN 5-89173-038-3
- 13.Сто великих битв. М., 1998.
- 14.Строков А.А. История военного искусства. СПб., 1994.
- 15.Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимги даврдан ҳозиргача) Масъул муҳаррир: Д.Х.Зияева. Т., «Шарқ», 2012. -256 б.

Qo'shimcha adabiyotlar va internet resurslari

1. Martin van Creveld. A History of Strategy: From Sun Tzu to William S. Lind. Castalia House, 2015. — 140 p. — ISBN: 9527065542.
2. Military History Monthly // 2010 yil oktyabrdan oyda bir marta nashr qilinadigan jurnal (oynoma). 2011 yil noyabrdan shu nom bilan nashr qilina boshlandi. London: Current Publishing. 2010-2016 №9. (yuklash uchun manzil: http://vipbook.info/jurnal/voennye-i-history_zhurnal)
3. Pat Southern. The Roman Army. A Social and Institutional History. ABC-CLIO Inc, 2006. — 383 pages.
4. Богданович. История военного искусства и замечательнейших походов. СПб., 1853.
5. Дюпюи Э. Р., Тревор Н. Дюпюи. Всемирная история войн. / Харперская энциклопедия военной истории. Книга 1-2. СПб., 1997.
6. Курушин М. Ю. 100 великих военных тайн — «Вече», 2015

7. Лубченков Ю. Н., Все полководцы мира. Новое время. М., 2001.
8. <http://www.military-history.org>

